

8-sinf adabiyot. IIIchorak. 3-BSB.

Insho (50 ball)

Quyida berilgan asarlar asosida insho yoziladi:

Usmon Nosir. “Yurak”, “Nil va Rim”, “Yana she’rimga” she’rlari.

Said Ahmad. “Ufq” romani.

Asqad Muxtor. “Chinor” romani.

BSB bo’yicha o’quvchiga qo’yiladigan talablar:

berilgan asarlardan birini tanlab, mustaqil ravishda insho yozish uchun ma’lumotlar to’plash;

mavzu chuqur o’rganish, dalillar uchun manbalardan ma’lumotlar yig’ish;

mavzu asosida mustaqil reja tuzish;

mavzuga mos keluvchi hikmatli so’z, maqol, ibora va badiiy parchadan epigraf tanlash;

asar g’oyasini tahlil qilib, aniq xulosalar berish;

so’z qo’llash mahorati, shuningdek, o’z munosabatini ifodalay olish;

maqsadni aniq qo’ya olish va amalga oshirishga intilish;

bir-birini takrorlamaydigan g’oyalarni tatbiq qilish;

Inshoni baholash mezonlari (50 ball)		1 ta	2 ta	3-4 ta	5-7
Imlo xatolari	5 ball	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball
Uslubiy xatolar	5 ball	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball
Tinish belgilari	5 ball	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball
Mavzuning asosli, aniq hamda tartib bilan yoritilishi	10 ball				
Sarlavha bilan mavzu uyg’unlashgan; ishga ijodiy yondashilgan; reja puxta tuzilgan, mavzuga mos epigraf tanlangan, fikrlar mantiqan izchil, uslubiy va punktuatsion jihatdan to’g’ri; dalillarga tayangan holda yozilgan.	10 – 9 ball				
Sarlavha bilan mavzu uyg’unlashgan; ishga ijodiy yondashilgan; reja tuzilgan, mavzuga mos epigraf tanlangan, fikrlar mantiqan izchil, uslubiy va punktuatsion jihatdan to’g’ri, ammo asoslanmagan bo’lsa	8 – 6 ball				
Sarlavha bilan mavzu uyg’unlashgan; rejada izchillikka amal qilinmaganligi sabab, fikrlar tartibsiz ifoda etilgan bo’lsa	5 – 3 ball				
Mavzu sarlavha bilan uyg’unlashmagan; ish rejasiz yozilgan (tayyor manbadan ko’chirib berilgan) bo’lsa	2 – 1 ball				
Badiiyligi (so’z qo’llash mahorati)	10 ball				
yozma ishda ko’chma ma’noli so’z, ibora hamda ma’nodosh so’zlardan o’rinli foydalangan bo’lsa	10 – 9 ball				
ma’nodosh so’zlarni o’rinli qo’llamay, qisman takroriylikka yo’l qo’ygan bo’lsa	8 – 6 ball				
Ko’chma ma’noli so’z, iboralarni qo’llagan bo’lsa-da, ma’nodosh so’zlarni o’rinli qo’llamay, qisman takroriylikka yo’l qo’ygan bo’lsa	5 – 3 ball				
fikr bo’yoqsiz, shunchaki ma’lumot sifatida ifodalangan, takroriylikka yo’l qo’yilgan bo’lsa	2 – 1 ball				
Husnixat va ozodalik	10 ball				
husnixati aniq va ravon, tushunarli bo’lsa	10 – 9 ball				
husnixati biroz noaniq, harflar qiyshaygan bo’lsa, ravon	8 – 6 ball				

o'qish biroz qiyin, ayrim harf va so'zlar bo'yalgan bo'lsa					
husnixati noaniq, harflar qiyshaygan bo'lsa, ravon o'qish biroz qiyin, ayrim harf va so'zlar bo'yalgani sabab o'qib bo'lmasa	5 – 3 ball				
husnixati noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish qiyin, harf va so'zlar chaplashib ketgan bo'lsa	2 – 1 ball				
Mustaqil fikr bildirish xususiyati	5 ball				
har bir ma'lumot izohlanib, qiyosiy tahlil qilinib, shu bilan birga, fikrlariga xulosa yasalgan hamda o'z munosabati asosli va izchil ifodalangan bo'lsa	5 ball				
mustaqil fikr bildirish olgan, ammo matn mazmunida ijodiylik aks etmagan bo'lsa	4 – 3 ball				
Mustaqil fikr bildirilmagan, shuningdek, matn mazmunida ijodiylik ham aks etmagan bo'lsa	2 – 1 ball				

O'quvchi to'plagan ball: _____
 Tekshiruvchi o'qituvchi: _____ (imzo)